



JAMOAT SALOMATLIGI

Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi



REKTOR TALABALAR BILAN UCHRASHDI



Institut rektori, professor Akmal Sidikov oliygoҳ talabalar bilan navbatdagi ochiq va samimiy uchrashuvini o'tkazdi. Tadbirda 3- 4-bosqich talabalar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari hamda mas'ul xodimlar ishtirok etdi.

Uchrashuvdan maqsad talabalarning ta'lim jarayonidagi ehtiyojlari va fikr-mulohazalarini tinglash, ularning dars mashg'ulotlariga bo'lgan munosabati va faoliyatini muhokama qilish edi. Professor Akmal Sidikov oliygoҳda

amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi o'quv dasturlari va ilmiy izlanishlarga oid loyihalar haqida ma'lumot berdi. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish, talabalarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy masalalarni hal etishga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.

Tadbir davomida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, o'quv jarayonida duch kelayotgan muammolar, amaliyot imkoniyatlari va shaxsiy

tashabbuslarini bayon qilishdi. Rektor har bir masalanı diqqat bilan tinglab, tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishga va'da berdi. Shu bilan birga, talabalarni o'z bilimlarini oshirish, kasbiy malakalarni mustahkamlash hamda oliygoҳning ijtimoiy hayotida faol qatnashishga chaqirdi.

Tadbirda rektor tomonidan talabalarning o'z kelajagini rejalashtirishda muhim qadamlar tashlash, ilmiy izlanishlar va xalqaro loyihalarda qatnashish imkoniyatlari

haqida ham batafsil ma'lumot berildi. Fakultet dekanlari va kafedra mudirlari esa talabalarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini bildirishdi.

Mazkur uchrashuv talabalar va rahbariyat o'rtaсида ochiq muloqotni rivojlantirish, o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi. Uchrashuv iliq va do'stona muhitda yakunlandi, talabalarida yangi g'oya va tashabbuslarni amalga oshirishga ilhom uyg'otdi.

E'tirof

Bizda shunday talabalar bor!

2024/2025-o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichining 83 nafar talabasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi tanlovi g'olib bo'ldi. Stipendiyalar bizning talabalarimizdan 3 nafariga nasib etdi.

Davolash ishi fakulteti 6-bosqich talabalar - Bahodirjon Axmatov va Gulira'no Shohobiddinovalar Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyasini, Umrbek Axmadjonov esa Islam Karimov nomidagi davlat stipendiyasini qo'lga kiritdi.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ilmga chanqoҳ talabalarimiz hamda ularning barcha ustozlarini, ota-onasini samimiy tabriklaydi!



Umrbek AXMADJONOV



Bahodirjon AXMATOV



Gulira'no SHOHOBIDDINOVA



TA'LIM VA MEDIA SOHASIDA YANGI BOSQICH:

**Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti va
TATU Farg'ona filiali o'rtaida
hamkorlik memorandumi imzolandi.**

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va ularning turli sohalarga joriy etilishi ta'lif muassasalarini jamoatchilik bilan aloqalarni kuchaytirishga undamoqda. Shu ma'noda, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti hamda Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali Axborot xizmatlari o'rtaida imzolangan "Media, ommaviy kommunikatsiyalar hamda jamoatchilik bilan aloqalarni rivojlantirish" bo'yicha hamkorlik memorandumi alohida ahamiyatga ega.

Mazkur memorandumning maqsadi ikki nufuzli oliy ta'lif muassasasi o'rtaida axborot almashinuvni va ommaviy kommunikatsiyalarini rivojlantirishda yangi yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, media sohasi bo'yicha tajriba almashish imkoniyatlarini

kengaytirishdan iboratdir.

Hamkorlik doirasida amalga oshiriladigan ishlar nafaqat ikki oliygohning Axborot xizmatlari faoliyatini takomillashtirishga, balki O'zbekistonda ta'lif va media sohasidagi integratsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu tashabbus media bilan ishlashning zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va jamoatchilik bilan ishonchli aloqalar o'rnatishda yangi yo'naliishlarni ochib beradi.

Ikki muassasa o'rtaida memorandum asosida 2025-yilda Farg'ona media va kommunikatsiya sohasidagi ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan innovatsion forum o'tkazish, qo'shma ilmiy-amaliy loyihalarni moliyalashtirish va talabalar uchun grant dasturlarini ishga tushirish rejalashtirilmoqda.

Hamkorlik doirasida quyidagi masalalarga e'tibor qaratilishi rejalashtirilgan:

- O'quv va seminarlar tashkil etish: Media va kommunikatsiyalar sohasida zamonaviy ko'nikmalarga ega bo'lish uchun o'qituvchilar, talabalar va mutaxassislar uchun seminar va treninglar o'tkaziladi.

- Mahorat darslari: Media va PR sohasida faoliyat yuritayotgan tajribali mutaxassislarni jalb etgan holda talabalarga amaliyotga yo'naltirilgan mahorat darslari tashkil etiladi.

- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda jamoatchilik bilan aloqalar va axborot tarqatish jarayonlarining sifatini oshirish ko'zda tutilmoqda.

- Qo'shma media loyihalar: Farg'ona viloyatida dolzarb mavzularga oid axborot loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bu orqali mahalliy va xalqaro jamoatchilikka O'zbekistonning ta'lif salohiyatini namoyish etish.



**Suratlarda: Uchrashuvdan
lavhalar aks etgan.**

Bu kabi tashabbuslar yoshlarni ijodkorlikka chorlab, ularni kelajakda media sohasida yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllanishlariga ko'maklashadi. Shu bilan birga, bu sa'y-harakatlar O'zbekistonning ta'lif va axborot-kommunikatsiya sohasidagi salohiyatini jahon miqyosida yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Memorandumning imzolanishi O'zbekiston ta'lif tizimida yangi bosqich boshlanganini ko'rsatmoqda. Bu kelajakdagagi hamkorlik aloqalari uchun poydevor bo'lib, ikki oliygohning global raqobatbardoshlik darajasini oshirishga yordam beradi.

**Sh. NORMAHAMADOV,
jurnalist.**



Mamlakatning eng istiqbolli innovatorlarini birlashtirgan Raqamli startaplar haftaligining eng muhim tadbiri bo'lgan "President Tech Award" grand-finalini o'tkazish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbir Raqamli texnologiyalar vazirligi, IT Park Uzbekistan va "Plug and Play" tomonidan tashkil etildi.

Ushbu tanlovda TATU Farg'-ona filiali «Braille Recognition» jamoasi

«Ijtimoiy soha texnologiyalari yo'naliishi» bo'yicha Kompyuter injiringi va sun'iy intellekt fakulteti Axborot texnologiyalar kafedrasи asistenti Zulayho Qadamova, IT park rezidenti Muhammadqodir Abduvoitov, Bibihadicha Abduvoitova hamda talabamiz Mujibali Temiraleivlar Prezident Tech Award tanlovida 30000 AQSh dollarini pul mukofotini qo'liga kirtdi.

IIB HUDDIDA KIBERXAVFSIZLIK LABORATORIYASI TASHKIL ETILDI



Prezident tomoni-dan joriy yilning 20-iyun kuni muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lif muassasalarini faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishida

berilgan vazifalarni bajarish maqsadida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Farg'ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi bilan hamkorlikda kiber xavfsizlik laboratoriyasini tashkil etish bo'yicha memorandum imzolangan edi. Unga asosan Farg'ona viloyati IIB huddida katta kiber xavfsizlik laboratoriysi ochilishi tadbiri bo'lib o'tdi.

Mazkur laboratoriya to'liq zamonaviy texnologiya va kompyuterlar hamda laboratoriya huddida talabalar uchun yotoqxona tashkil qilindi.



**Mazkur sahifa TATU va FJSTI ning Axborot xizmatlari
hamkorligida tayyorlandi**

USHBU SAHIFADA: INSTITUTNING MALAKALI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, TALABALARI, SHIFOKORLARINING TIBBIYOT BILAN BOGLIQ URF-ODAT VA QADRIYATLAR, XALQ TABOBATI, AHOI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH VA TURLI XASTALIKLARNI OLDINI OLİSH MAVZULARIDAGI MAQOLALARI YORITIB BORILADI.

"SOG'LOM HAYOT" SAHIFASI

SHAMOLLASHNI DAVOLASH BO'YICHA BESHTA TAVSIYA



Gulnoraxon XODJAEVA,
terapiya yo'nalishidagi fanlar
kafedrasi katta o'qituvchisi.

Sovuq ob-havo
sharoitida yuqori nafas yo'llari infeksiyalarining oldini olish muhim ahamiyatga ega. Epidemiologik tadqiqotlar va immunologik kuzatuvlar assosida quyidagi ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan:



1. Immun tizimini mustahkamlash:

C vitaminini: Antioksidan xususiyatlari tufayli immun javobni kuchaytiradi. Limon, apelsin va sabzavotlar iste'moli tavsiya etiladi.

D vitaminini: Quyosh nuri yetarli bo'limgan mavsumda vitamin D qo'shimchalarini qabul qilish nafas yo'llari infeksiyalariga qarshi chidamlilikni oshiradi.

2. Termoregulyatsiyani saqlash:

Tana haroratining tushishi patogen mikroorganizmlarga qarshi kurashish qobiliyatini susaytiradi. Shuning uchun tashqi haroratga mos ravishda issiq kiyinish zarur.

Termik stressning oldini olish uchun nam kiyimlarni zudlik bilan almashtirish va tanani quruq saqlash lozim.

3. Gigiena qoidalariga amal qilish:

Qo'l gigienasi: Qo'llarni muntazam ravishda yuvish orqali infektion agentlarning yuqishini 40–50 foizgacha kamaytirish mumkin (WHO tavsiyasi).

Yuz va ko'zga qo'l tekkezmaslik orqali viruslarning yuqish ehtimolini minimallashtirish mumkin.

4. Havoning gigienasi:

Xonalarni shamollatish va havoni namlantirish muhim, chunki quruq havo shilliq qavatlarni quritib, himoya funksiyasini pasaytiradi. Optimal namlik darajasi – 40–60 foiz.

Toza havoda yurish organizmning adaptatsion qobiliyatini oshiradi.

5. Sog'лом hayot tarzi va profilaktik choralar:

Jismoniy faoliyk (o'rtacha yuklama) immunomodulyatsion ta'sir ko'rsatadi.

Yetarli uyqu (7–8 soat) va stressni kamaytirish immun tizimining barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Gripp va boshqa respirator infeksiyalarga qarshi vaksinalar tavsiya etiladi, ayniqsa, xavf ostidagi guruhlar uchun.

Antiviral vositalar shifokor ko'rsatmasi bo'yicha qo'llanishi mumkin.

Ushbu tavsiyalarni amalda qo'llash sovuq mavsumda respirator infeksiyalarining oldini olishda samaradorligini oshiradi va sog'лом turmush tarzini ta'minlashga xizmat qiladi.

SEROTONIN $C_{10}H_{12}N_2O$

Bulutli kunlarning ko'p bo'lishi serotonin gormon yetishmovchilagini keltirib chiqarish mumkin

Kunlarning qisqarishi, sutka davomida Quyosh kam nur sochadigan ayni damda bulutli, yomg'irli ob-havo kishilar kayfiyatiga turli ta'sir eta boshlaydi.

Serotonin yetishmovchiligi ko'pchiлик aholining kundalik hayotiga ta'sir ko'rsatishi sabab, serotonin yetishmasligi haqida to'liqroq ma'lumot berish maqsadga muvofiq.

Serotonin yetishmasligi — tanada muhim neyrohujayralarni balansda ushlaydigan serotonin darajasining pasayishi yoki yetishmasligidan kelib chiqadigan holatdir. Serotonin miya faoliyatida muhim rol o'ynaydi hamda kayfiyat, uyqu, ishtaha, hissiyorlar kabi jarayonlarni boshqarishga yordam beradi. Serotonin yetishmasligi odatda quyidagi simptomlar bilan namoyon bo'ladi: depressiya, tashvish, uyqusizlik, ishtaha o'zgarishi, tez charchash, umumiylanjlik, kognitiv funksiya buzilishi (e'tibor qaratish qobiliyati pasayishi).

Tavsiyalar. Serotonin gormoni yetishmasligi oldini olish uchun ovqatlanish ras-i-oniga tuxum, yong'oq, go'sht mahsulotlari va losos' balig'i qo'shish kerak. Muntazam jismoniy mashqlar ham sero-toninni oshiradi. Eng asosiy tavsiya—oftob bulutlar orasidan «mo'ralagan» vaqtarda imkon qadar uning taftidan bahra olishga intilish kerak. Shuningdek, shifokor maslahati bilan serotoninni ko'paytiruvchi vitaminlar ichish ham maqsadga muvofiqdir.

Tashabbus

Farg'ona shahar
42-umumta'limgan məktəbi pediatriya fakulteti stomatologiya yo'nalişining 2-bosqich
6523-6423 guruhlari va kafedra assistenti Z.Madraximovalar tomonidan "Sog'lom tishlar — sog'lom hayot garovi!" mavzusida tadbir tashkillandi.



SOG'LOM TISHLAR — SOG'LOM HAYOT GAROVI!

Bolalar salomatligi holati nafaqat bugungi kunda, balki jamiyat va davlatning kelajakdag'i farovonligining muhim ko'satsatichidir. Shu bois, bolaning sog'lig'i yuzaga keladigan har qanday og'ishlarning to'g'ri yo'iga qo'yilishi, profilaktik tekshiruvlarini va tadbirdilarni ahamiyati katta.

1-sinf o'quvchilari o'rtaida o'tkazilgan tadbirda sog'lom ovqatlanish, shaxsiy gigiena qoidalari, tishlarni parvarish qilish hamda o'z vaqtida tibbiy ko'rnikdan o'tishlari kerakligi haqida ma'lumot berdilar.

Bolalar orasida gingivit (milk yallig'lanishi, og'iz bo'shlig'iida qizarish, milkarda shish paydo bo'lishi, og'izdan yoqimsiz hid kelishi, milkarning qonashi), stomatit (og'iz bo'shlig'i yallig'lanishi), parodontit, parodontoz (tishlarni qimirlashi, milk yallig'lanishining kuchayishi) kabi tish kasalliklari ko'p uchraydi. Ushbu kasalliklar nafaqat bolalarda, balki kattalarda ham kuzatiladi. Xastalikning oldini olish uchun, avvalo kalsiya boy vitaminli mahsulotlar, jumladan, baliq, pishloq, sut mahsulotlari,

olma, sabzi, shivit kabi meva va sabzavotlar, ko'katlarni iste'mol qilish zarur. Ko'p shirinlik iste'mol qilish ham xastalikka zamin yaratadi.

Tadbir davomida tishning anatomik tuzilishini talabalar chizib ko'rsatildilar. Shuningdek, tishlarni qanday qilib kariesga uchrashi to'g'risida animationsion film namoyish qilindi. Shundan so'ng talabalar to'g'ri tish yuvish texnikasini ko'rsatib berishdi va o'quvchilar ham bajarishdi.

—Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad, bolalar o'rtaida tibbiy va gigienik ongni

rivojlantrish, sog'lom turmush tarzini tar'ib qilish, sog'lom ovqatlanish haqida bilimlarni targ'ib qilishdir,— deydi tadbir tashkilotchisi Z.Madraximova. —Biz umid qilamizki talabalar tomonidan tashkillangan tadbir bolajonlar uchun juda foydali bo'ldi.

Yakunda talabalar o'quvchi yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi. Barcha o'quvchilarga sovg'alar ulashildi va tadbirda faol ishtirok etganlar sertifikat bilan taqdirlandi.

I.ABDIJABBOROV.



Suratlar muallifi: A.ADHAMOV.

Karies kasalligini davolash va oldini olishda ozuqalarning o'rni

Sog'lom tishlar, avvalo, organizm salomatligidan darak beruvchi belgi hisoblanadi. Tishlar chaynov jarayonining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanib, so'lak fermentlari yordamida ovqat luqmasini hazm jarayoni uchun tayyorlab berishi bilan ham ahamiyatlidir. Sog'lom, tishlar insong'a husn va chiroyli tabassum hadya etadi.

Tishlarni sog'lom va uzoq vaqt saqlanishi, avvalo, og'iz bo'shlig'i gigienasi qoidalariiga to'liq va doimiy ravishda e'tibor berishga bog'liq. Shuningdek, yilda 2 marotaba stomatolog shifokor nazorat ko'rigidan o'tish tavsiya etiladi.

Karies kasalligini davolash va oldini olishda parhez va to'g'ri ovqatlanish muhim o'r'in tutadi. Bir kunlik ovqatlanish tarkibida oqsil, yog' va uglevodlar me'yorida

bo'lishi kerak. Ovqatlanish ozuqalari tarkibida kalsiy (sut, pishloq, tvorog, tuxum, yong'oqlar, go'sht, sabzavotlar), fтор (choy, salatlar, mineral suvlari), fosfor (baliq, go'sht, loviya, lavlagi, olcha, o'rik, gilos, shaftoli) bo'lishi maqsadga muvofiq.

Og'ir somatik kasalligi va ba'zi dori vositalarga allergiyasi bor bemorlarda parhez terapiya kariesni profilaktika va davolash vositasi bo'lib hisoblanadi. Bemorlar yaxshi yodda tutishlari lozimki, tishlarda ozuqlar qoldig'i qolmasligi uchun tish tozalash cho'tkasi qattiq bo'lishi va meva-sabzavotlarni doimiy iste'mol qilish tavsiya etiladi.

**Saadat YUSUPALIXODJAева,
tibbiyot fanlari doktori.**



KORRUPSIYASIZ MAKON

**"Korrupsiya – bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir".
"Sovun kurni, jahl – aqlni, korrupsiya millatni yo'qotadi".**

Jamiyatda shunday illatlar borki, u ma'lum bir sohaga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladı. Davlatni ichichidan yemiradigan ana shunday illat – korrupsiya va poraxo'rlikdir. Aynan shu illat sabab ko'plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma'lum. Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korrupsiya bizning kunlarga yetib kelganligi shundan dalolat beradi, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan g'arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo'lomagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etib kelmoqda.



Korrupsiya yuqorida qayd etilgandek, qadimdan mavjud bo'lib, ayrboshlashning noqonuniy ya'ni boshqa bir insonlarga yoki atrof-muhitga, hayvonot va o'simlik olamiga zarar yetkazadigan amal hisoblanadi. Korrupsiya – jahondagi har qanday davlatda fuqarolarning tinchligi va xotirjamligi, demokratiya va huquq ustuvorligi asosolariga putur yetkazuvchi, inson huquqlari bузилишига оlib keluvchi, iqtisodiy bozor munosabatlariга то'sqinlik qiluvchi o'ta xavfi illatlardan biridir.

Pora olish shu kunga qadar asosan yuqori tashkilotlar mansabdorlari o'tasida avj olgan bo'lsa, bu illat bugungi kunga kelib quyi tashkilotlar mansabdorlari orasida ham uchramoqda. Bu esa bevosita oddiy xalqning davlat va mansabdorlarga bo'lgan ishonchini yo'qolishiga olib keladi.



"KORRUPSIYA" SO'ZI – LOTINCHA "CORRUPTO" SO'ZIDAN OLINGAN BO'LIB, "SOTISH", "SOTILISH" DEGAN MA'NOLARNI ANGALATADI. KORRUPSIYA ASOSAN IKKI TARAFLAMA AMALGA OSHIRILADI, YANI IKKALA TOMON HAM QANDAYDIR MODDIY BOYLICKA EGA BO'LISHI UCHUN DAVLAT QONUNLARIGA ZID RAVISHDA ISH BAJARISHIDIR.

Korrupsiya –
shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi demakdir.

Korrupsiyaning eng asosiy muammosi shundaki ko'pchilik uchun mo'ljalangan moddiy boylik bir nechta inson qo'lida bo'lib qoladi. Mamlakatimizda mazkur muammoga qarshi mustaqillikdan buyon kurashib kelinmoqda. Bu boroda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunning ahamiyati katta. Mazkur qonun 6 bob va 34 moddadan iborat. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar va me'yorlar belgilangan.

Muqaddas kitobimiz Qur'oni karimda ham poraxo'rlik bevosita taqilanganadi: "Bir-birlaringizning mollarining botil yo'l bilan yemang. Bilib turib, odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang" (Baqara surasi, 188).

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, dunyoning barcha mamlakatlarida u yoki bu tarzda korrupsiya namoyon bo'lmoida. Xalqaro valyuta jamg'armasining taqsimlovchi direktori Kristin Lagardning ma'lum qilishicha, har yilgi poralar qiyomi 2 trln dollargacha. Ya'ni bu miqdor dunyo yalpi ichki mahsulotining 2 foizini tashkil qiladi. Korrupsiyalashgan sohalar qatorida birinchi navbatda davlat xaridları, qurilish, jumladan, yo'l qurilishi, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalari tilga olinmoqda.

Demokratik qadriyatlar qaror topib borayotgan bir



vaqtida davlat xizmatchilarini tomonidan poraxo'rlik, mansab mavqeini suiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etilishi, ta'lim muassasalarini rahbarlari, professor-o'qituvchilari va hodimlarining obro'sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetishiga, natijada ta'lim muassasalariga nisbatan norozilikka sabab bo'ladi. Korrupsiyaning ma'lum bir mamlakatda rivojanishi esa o'sha davlatning tanazzuliga olib keladi.

Korrupsiya qanchalik jirkanch, mammalakat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'luvchi eng kuchli illat ekanligi hammamizga ma'lum.

Biz o'z oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimiz korrupsiyasiz jamiyat qurish va ushbu yo'lda barcha professor-o'qituvchilar, hodimlar va talabalar birlashishimiz zarur.

**B.KAZAKOV,
institutning korrupsiyaga qarshi kurash
"Komlaens nazorat" tizimini boshqarish
bo'limi boshlig'i.**

**S.ISAQOV,
institutning korrupsiyaga qarshi kurash
"Komlaens nazorat"
tizimini boshqarish bo'limi bosh
mutaxassis.**

Qiziq statistika

SOVG'A BERISH MINNATDORLIK BELGISIMI?

"O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi milliy ekotizimni mustahkamlash" qo'shma loyihasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda jamoatchilik va hukumatning korrupsiyaga munosabati baholandi.

Koreya Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va fuqarolik huquqlari bo'yicha komissiyasi (ACRC), BMT Taraqqiyot dasturining Seuldag'i siyosiy markazi va Yevropa ittifoqi bilan hamkorlikda o'tkazilgan ushbu tadqiqot 500 dan ortiq so'rov ishtirokchilarining ma'lumotlariga va 20 dan ortiq anonim davlat vazirlik va idoralarini xodimlarining fikr mulohazalariga asoslangan.

Tadqiqotda O'zbekistonning 14 ta hududida maqsadli guruhi, ekspert intervyulari va telefon orqali so'rovlar yordamida jamoatchilik fikri haqidagi asosiy ma'lumotlar to'plandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, jamoatchilik ko'pincha korrupsiyani poraxo'rlik va qarindosh-urug'chilik deb tu-shunadi. 50 foizdan ortiq respondentga ko'ra, korrupsiya – bu mansabni suiste'mol qilish va qarindosh-urug'chilik, 40 foizdan kamroq'i uchun esa qimmatbaho sovg'alar berishdir.

Aksariyat kishilar sovg'a berishni korrupsiya emas, balki minnatdorlik deb biladi.

Pora olish (88,4 foiz) va para berish (68,4 foiz) ko'pchilik tomonidan qoralanadi, ammo yaxshi xizmat uchun kichik sovg'alar odatiydek qabul qilinadi.

Respondentlar korrupsiya keng tarqalgan sohalar sifatida sog'liqni saqlash, ta'lim (ayniqsa, oliy ta'lim) va mahalliy hokimiyatni e'tirof etdi.

Qishloq aholisi shahar aholisiga qaraganda avtomobil yo'llarini eng korrupsiyalashgan soha sifatida ko'rsatgan — mos ravishda 22,2 foiz va 12,8 foiz.

Respondentlarning 74,0 foizi korrupsiya holatlari haqida xabar berishga, jumladan, 82,2 foizi elektron platforma yoki mobil ilova orqali xabar berishga tayyor. 12 foiz respondent korrupsiya haqida xabar berishni salbiy holat deb hisoblaydi. Xabar bermaslikning asosiy sabablari sifatida bu befoyda, hech kim bunga e'tibor bermasligi (24,8 foiz) kimga murojaat qilishni bilmaslik (20,4 foiz), korrupsiyadan o'zlar manfaatdorligi (19,8 foiz) ko'rsatilgan.

“SOG’LOM HAYOT” SAHFASI

«UYQU MADANIYATI»GA AMAL QILISH KERAK!

Uyqu buzilishidagi muammolar biz uyqu madaniyatiga amal qilmayotganligimizadir. Ha, yirik megapolis shaharlarda atrof-muhit ifloslanishi, kislorod yetishmovchilik omili ham uyqularga ta’sir qiladi. Ammo, tungi yorug’liklar «chiroqlar» kabi yuqori emas... Va uyqu madaniyatiga amal qilmayotganimiz ham muammolarni ko’paytirmoqda.



Gidrometeorologik ilmiy tahlillar, ob-havo prognoz sharhlari, tadqiqotlar, ma’ruzalar kanalida o’tkazilgan so’rovnomada 60 foiz ishtirokchi so’nggi paytlar uyqularida keskin o’zgarishlar kuzatilayotganini e’tirof etgan. Bu, bir tomondan ob-havo omiliga bog’liq bo’lib, mavsumiy namlik ortishi va haroratning keskin pasayishi turli bakteriyalar, viruslar faolligini oshirdi. Ko’pchilik tanasi so’rovnomaga o’tkazilayotgan vaqtarda respublika bo’ylab gripp simtomplarini boshidan o’tkazdi.

Bu kabi virusga qarshi organizmning kurash bosqichida tabiiyki, kishilar uyqusi buziladi. Ammo bu kabi omil uyqu buzilishidagi asosiy sabab emas. Hozir ham kanalda so’rovnomaga o’tkazilsa, extimoliy 50 foiz ga yaqin ishtirokchi uyqularida muammo borligini ta’kidlasa kerak.

Uyqu bo'yicha mutaxassislar kechki odatlarni tartibga solish va to'laqonli dam olishni ta'minlash uchun "10-3-2-1-0" qoidasiga amal qilishni tavsiya etmoqda.

Ushbu formula ovqatlanish, kundalik odatlар va gadjetlardan foydalanish bilan bog’liq asosiy jihatlarni o’z ichiga oladi.

UYQUDAN 10 SOAT OLDIN...

Uyqudan 10 soat oldin kofeinli ichimliklar va mahsulotlarni iste’mol qilishdan voz kechish lozim. Bu qahva, choy, energetik ichimliklar, shokolad va gazlangan ichimliklarga taalluqli. Shuningdek, shakarning organizmiga salbiy ta’siridan qochish uchun shirinliklarni cheklash tavsiya etiladi.

UYQUDAN 3 SOAT OLDIN...

Bu vaqt oralig’ida spirtli ichimliklar iste’mol qilish va ovqatlanish tavsiya etilmaydi. Alkogol uyqu chaqirsa-da, ular uyquning chuqurligi va davomiyligini yomonlashtiradi. Yog’li yoki achchiq taomlar ham noqulaylik tug’dirib, uyquga xalaqit beradi. Buning o’rniga kletchatkali, murakkab uglevodli yoki yog’siz oqsilli mahsulotlarni tanlash maqsadga muvofiq.

UYQUDAN 2 SOAT OLDIN...

Olimlar stressni kamaytirish va miyaga uyquga moslashish uchun vaqt berish maqsadida barcha yumushlarni uyqudan

ikki soat oldin yakunlashni tavsiya etadi. Dam olish uchun nafas olish mashqlari yoki meditasiya ayni muddao bo’ladi.

UYQUDAN 1 SOAT OLDIN...

Telefon, televizor va komp’yuterni o’chirib qo’yish kerak. Ko’k yorug’lik melatonin ishlab chiqarilishini sekinlashtiradi, bu esa organizmning tabiiy ritmini buzib, uyqusizlikka olib kelishi mumkin.

0 MARTA BUDILNIK

TAKRORI...

Budilnik bir marta jiringlagandan so’ng uyqudan turish kerak. Aks holda, umumiy uyqu davomiyligi qisqaradi va kunbo’yi charchoq his qilinadi.

Mutaxassislar uyqudan maksimal foya olish uchun xonani qalin pardalar bilan qorong’ilashtirishni, havo sifatini nazoratga olishni va magniy qabul qilishni tavsiya etadi. Kechqurun yengil jismoniy faoliylik ham uyquga ketishni osonlashtirishi mumkin.

KASALLIKNI OLDINI OLAMIZ!



Marjona MA’MUROVA,
Davolash ishi fakulteti
2-bosqich talabasi.

Qish fasli – tananing o’zini sovuqdan himoya qilishga majbur bo’ladigan davr. Sovuq havo nafaqat immunitetni, balki yurak-qon tomir tizimiga ham ta’sir qiladi. Qish mavsumida yurak-qon tomir tizimida bir qator o’zgarishlar yuz beradi. Bu o’zgarishlar ba’zan sog’liqni xavf ostiga qo’yishi mumkin.



faoliyatini qo’llab-quvvatlaydi.

3. Sog’lom ovqatlanish:

Xolesteringa boy bo’lgan mahsulotlardan iloji borifha qochish kerak. Sabzavotlar, mevalar va omega-3 yog’ kislotalariga boy ovqatlar yurak salomatligi uchun foydalidir.

4. Uyqu va dam olish:

Yaxshi uyqu va stressni kamaytirish yurakning normal ishslashiga yordam beradi. Meditatsiya, nafas olish mashqlari va yengil mashqlar yordamida stressni boshqarish mumkin.

Yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash uchun bir qator foydali mahsulotlar va xalq tabobati usullaridan foydalanish mumkin. Quyidagi mahsulotlar va usullar yurakni mustahkamlashda yordam beradi:

QON BOSIMINI NAZORATDA USHFLASH VA SALOMATLIKNING

TABIY YO’LLARI :

1. Ko’katlar va sabzavotlar iste’moli

Ismaloq, petrushka, kashnich, selderey – kaliy va magniya boy, qon tomirlarini kengaytiradi.

2. Mevalar

Anor, banan, limon, olma – qon bosimini tartibga soladi. Ayniqsa, anor sharbati foydalisi.

3. Qora choy o’rniga ko’k choy

Ko’k choy antioksidantlar tufayli qon bosimini pasaytirishga yordam beradi.

4. Sarimsoq iste’moli

Har kuni 1-2 dona sarimsoq yurak-qon tomir faoliyatini yaxshilaydi.

5. Qora jiyyda urug’i (kalonji)

Asal bilan aralashtirib har kuni yarim choy qoshiqdan ichish foydali.

6. Lavlagi sharbati

Lavlagi tarkibidagi nitratlar qon bosimini pasaytirishga yordam beradi.

8. Tuz iste’molini kamaytirish

Ovqatga kamroq tuz solish – qon bosimini nazorat qilishning asosiy shartlaridan biri.

9. Qora sedana yog’i

Kuniga 1 choy qoshiq qora sedana yog’i bosimini tartibga solishga yordam beradi.

10. Chilonjiydadagi vitamin C miqdori

limonga nisbatan 10-15 barobar ko’p, shuning uchun yurak qon-tomir tizimi va immunitetni mustahkamlash uchun tavfsiya qilinadi.

PROFILAKTIKA

CHORALARI:

1. Qon bosimini nazorat qilish:

Qishki mavsumda qon bosimini muntazam ravishda tekshirib turish kerak. Yuqori qon bosimi bo’lganlar shifokor tomonidan belgilangan davolanishni davom ettirishlari zarur.

2. Jismoniy faoliylikni saqlash:

Hatto qishda ham harakat qilish kerak. Kamida 30 daqiqa piyoda yurish yoki uuda mashqlar qilish yurak-qon tomir tizimining

Xabaringiz bormi?

POLIKLINIKALARDA YANGI LAVOZIM: TIBBIY MENEJERLARNING VAZIFASI NIMA?

Birlamchi tibbiyot muassasalarida kun avvalida odam odatdagidan gavjum bo'ladi. Bunday paytda aholi oqimi shifoxona uchun katta yuklamaga sabab bo'lishi bor gap.

Xo'sh, ushbu vaziyatda muassasa rahbari qanday yo'l tutishi zarur?

Toshkent shahridagi birlamchi tibbiyot sanitariya yordamini muassasalarida tibbiy menejer lavozimini joriy qilish orqali ana shu muammoni hal qilish ko'zda tutilgan.

Ahamiyatlisi, tibbiy menejerlar hamshiralar orasidan tayinlanadi. Ular murojaat qilib kelayotgan aholini o'zi uchun zarur mutaxassis yoki tekshiruv tomonga boshqarish uchun mas'ul xodimlar hisoblanadi.

TIBBIY SUG'URTA TIZIMI BERGAN IMKONIYAT

Davlat tibbiy sug'urtasi tizimiga o'tish borasidagi ishlar Prezidentimizning tegishli qarorlari asosida Sirdaryo viloyatidan keyin Toshkent shahrida ham joriy qilina boshlagani munosabati bilan poytaxtimizda tibbiyotning birlamchi tizimida qator o'zgarishlar yuz berdi.

Ana shunday yangiliklardan biri shuki, birlamchi tizim rahbari har yilning 3-choragidan boshlab biznes-reja

tuzadi. Unda keyingi yil xarajatlari, shtat me'yorlari va zarur dori-darmon ehtiyojlar aks etadi. Ushbu reja tuman tibbiyot birlashmasi va Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tomonidan kelishib tasdiqlanadi.

Buning natijasida tuman tibbiyot birlashmasi rahbariga joriy yildagi ehtiyoj va hududdagi holatdan kelib-chiqib, yangi shtat birliklari tashkil etish vakolati berilgan. Tibbiy menejerlar ana shu imkoniyatning hosilasidir.

TIBBIY MENEJER AHOLINI BOSHQARADI

Tibbiy menejerlar muloqot qobiliyati yuqori bo'lgan hamshiralar orasidan tanlab olinadi.

Ular muassasaga kirib kelgan fuqarolarning murojaat turidan kelib chiqib, elektron navbat olishlariga, shifokor qabuliga yo'l olgan keksa va yordamga muhtoj kishilarning esa tibbiy qabil xonasini topib olishiga ko'maklashadi. Natijada bemorning tibbiyot muassasasidagi har bir harakati maqsadli bo'ladi, ortiqcha vaqt va asab yo'qotmaydi. Lo'nda qilib aytganda, tibbiy menejer bemorning marshrutini belgilab beradi.

QOZON SHAHRI TAJRIBASI — TOSHKENTDA

Ushbu lavozim o'z-o'zidan paydo bo'lmadi, albatta. Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi delegasiyasi Rossiya Federatsiyasining Tatariston Respublikasiga xizmat safari chog'ida respublika markazidagi tibbiyot muassasalarida yaratilgan sharoitlar, davolash-profilaktika borasidagi tajribalar bilan birga, tibbiy menejerlar faoliyati bilan ham tanishgan edi.

Shu birgina lavozimning tibbiyot muassasasi faoliyatini tartibga solishda muhim o'rning egaligi, aholi qatnovlarini bir izga solishi, shifokorlarga katta yengillik berishi Qozon shahri tajribasida isbotlangan edi.

Toshkent shahridagi birlamchi davolash-profilaktika muassasalarida boshlangan tibbiy menejerlar tajribasi ham aholi tig'iz joylashgan, qatnov ko'p bo'lgan ko'p tarmoqli markaziy hamda oilaviy poliklinikalarda yaxshi samara berib kelmoqda.

S.TURSUNOV.

"Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" axborot tizimlari ishga tushiriladi

Qarorga muvofiq, davlat tibbiy sug'urtasi mehanizmlarini joriy etish doirasida:


-2024 yil yakunigacha "Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" axborot tizimlari amaliyotga joriy etiladi;
-davlat tibbiy sug'urtasining axborot tizimi ishlab chiqiladi hamda amaliyotga joriy qilinadi;
-tibbiyot muassasasi rahbariga mua-s-sasanining quvvati doirasida

bo'linmalar ixtisoslashuvini, ular-dagi davo o'rinnari sonini o'zgartirish hamda ajratilgan mablag'lar doi-rasida xodimlar sonini ish hajmiga muvofiq belgilash vakolati beriladi;

-tibbiyot muassasalarini uchun tas-diqlangan shtat me'yorlari tavsiyaviy tusga ega hisoblanadi hamda 2025 yil 1 iyuldan tibbiyot va farmasevtika xodimlari mehnatiga haq to'lashning alohida tartibi hamda shartlari uchun qayta tasdiqlanadi.



Хужжатга мувофиқ, 2024 yil 1 oktyabrdan Toshkent shahri, Sirdarё viloyati ҳамда 2025 yil 1 yanvardan Қорақалпогистон Республикасида давлат tibbiy sug'urtasi mehanizmlarini amaliyетga tatabiq etishi belgilangan.



“DOKTOR HAUS” – TIBBIYOT XODIMLARINING SEVIMLI SERIALI

“Doktor Haus” seriali o’zbek tiliga dublyaj qilingandan so’ng, nafaqat tibbiyot sohasi vakillari, balki ko’plab ziyolilar, hatto oddiy aholi vakillarida ham katta qiziqish uyg’otgani ma’lum.

2004 yili yaratilgan, amerikalik kinoijodkorlar tomonidan sakkiz yil davomida suratga olingan, sakkiz mavsumdan iborat tibbiyot drama — “Doktor Haus” seriali voqealarini Pristol universitetida joylashgan Frist klinik markazida bo’lib o’tadi.

SERIAL YORDAM BERDI

Germaniyalik shifokorlar “Doktor Xaus” seriali orqali bemorga to’g’ri tashhis qo’yishdi.

Darakchi nashrining yozishchicha, klinika xodimlari bir necha oydan beri 55 yoshli bemorga tashhis qo’ya olmay, davolanish muolajalarini boshlay olishmayotgan edi. Bemor yil davomida bir necha bor yurak huruji, qayt qilish, istma chiqishi, quloq eshitish, ko’z nurining yo’qolishi bilan

shifoxonaga tushgan. Ammo shifokorlar bu belgilarga qarab aniq tashhis quyishga qiynalishgan.

Yurak huruji bilan kuzatilgan bu belgilarni Yurgen Sheferga “Doktor Xaus” serialining bir qismini esga soladi. Shifokor bemor metal (Kobalt) bilan zaharlanganini aniqlaydi.

Serialdagagi bemor bir necha yil avval son bo’g’imini metalli protez bilan almashtirgan bo’ladi.

Yurgen Shefer o’z bemorini kasallik tarixini o’rganadi. Hayotdagi bemor ham 2 yil avval son bo’g’imlariga protez o’rnatgani ma’lum bo’ladi.



JAMOAT SALOMATLIGI

MUASSIS:
Farg’ona jamoatligi tibbiyot instituti

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omnaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg’ona viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam bilan ro’yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
Akmal SIDIKOV

NASHR UCHUN MAS’UL
I.ABDUJABBOROV
Qog’ oz bichimi: A-3
Oyda bir marta o’zbek tilida chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:
150105, Farg’ona shahar,
Yangi Turon ko’chasi, 2-uy

Tel.: (73) 243-06-62
(94) 444-91-76

fmioz@mail.ru

fjsti.uz



GAZETA BEPUL TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

BOSMAXONA MANZILI:
Kosonsoy shahri, Chorbog’ ko’chasi, 17-uy.
Bosmaxonaga 19.12.2024 yil, soat 16 00 da topshirildi. Topshirish vaqt: 17:00

Buyurtma: Adadi: 500

SHIFOKORNING FARZANDI GAVDALANTIRGAN OBRAZ

Qo’pol, o’zidan boshqa hech kimni tan olmaydigan, bemorlardan ko’ra ularning kasalligi bilan yaxshiroq chiqishadigan daho! Bu obrazni jondantirgan Xyu Lori Britaniya dramaturgiyasiga qo’shgan hissasi uchun Britaniya imperiyasi ofisi ordeniga sazovor bo’lgan. U ijtimoiy antropologiya yo’nalishida tahlil olgan. Shuningdek, professional sport bilan ham shug’ullanadi.

Xyu Lorining otasi — shifokor. Aktyor o’z otasini parodiya qilgani uchungina katta miqdorda gonoror olishidan uyaganini yashirmagan. Kasting paytida ham Lori ikkinchi darajali rol’ o’ynayman, deb o’ylagan. Dastlab u doktor Haus kabi bema’ni va xudbin odam qanday qilib bosh qahramon bo’lishi mumkinligini tushunmagan.

DOKTOR HAUS — SHERLOK XOLMS

Serial muallifi Devid Shor Gregor Haus obraqi Artur Konan Doyl asarining qahramoni Sherlok Xolmsga taqlidan yaratilganini ta’kidlaydi.

Shifokor Gregor Haus va detektiv Sherlok Xolms o’tasidagi o’xshashliklarni butun serial davomida ko’rish mumkin. Bu teleserial suyjetining turli elementlarida kuzatiladi. Hausning kasallik jumbogi yechimiga psixologik yondashuvi, qiziqarsiz, deb bilgan ishlarga qo’l urmasligini, muammolarga esa sovuqqonlik, shu bilan birga hazilomuz yondashuvida shu taqldinidan izlarini ko’ramiz. Ikki qahramon ham o’z ishida “pixini yorgan”lardan. Gappa usta, yuksak intellekt sohiblari.

Hausning uy manzili 221-B xonadon, Konan Doyl asarida Xolmsning manzili ham shunday bo’lgan. Yana Haus bilan Xolmsning o’xshashlik taraflariga musiqani ham kiritish mumkin: Xolms skripka, Haus pianino va gitara chaladi.

Hausning doktor Jeyms Uilson bilan do’stligi Xolmsning birodari doktor Jon Vatsonga ishora qiladi. Uilson rolini ijro etuvchi Robert Shon Leonard avvaliga uning qahramoni va Haus teleserialda Sherlok Xolms va Doktor Watson rollarini o’ynashi kerak ekanini aytgan ekan, ammo Watsonning “maslahatchilik” pozisiysi Hausning jamaosiga “yuklanadi”.

“JARROHLIK AMALIYOTLARI BO’YICHA QO’LLANMA”

Teleserialda turli xil personajlar Sherlok Xolms haqidagi asar qahramonlarining ismi bilan ataladi. Ikkinci mavsumdagi seriyaldan birida Haus “Moriarti” ismli aqlini yo’qotgan bosqinchil tomonidan jarohatlanadi. Shuningdek, birinchi qismdagi assosiy bemorning ismi — Rebeka Adler, bu nom Sherlok Xolmsning ilk hikoyasidagi Iren Adlerning nomidan olingen.

To’rtinchi mavsumning bir qismida Haus sovg’a sifatida “Jarrohlik amaliyotlari bo’yicha qo’llanma” kitobini oladi. Bu kitob Sherlok Xolmsning prototipi bo’lgan Jozef Bell tomonidan yozilgan.



“HAMMA YOLG’ON GAPIRADIDI”

Hausning afsonaviy “Hamma yolg’on gapiradi” jumlesi boshqa serialdan olingen. Bu gap ilk bor “Klinika” fil’mida doktor Bob Kelso nomidan aytildi. Serialda MRT apparati ko’pincha “yolg’on detektori” sifatida ishlataladi. Ushbu uskuna haqiqatan ham yolg’onchini fosh qilishga yordam beradi — real vaqtda tomografiya miya faoliyatidagi o’zgarishlarni qayd etadi.

“Doktor Haus” teleseriali shu paytga qadar yetmishta yaqin mamlakatda namoyish qilingan. 2008 yil dunyo bo’yicha eng ko’p ko’rilgan televizion fil’m sifatida tan olingen. Shu ko’rsatkich bo’yicha “Ginnes rekordlari” kitobiga ham kiritilgan. Besh marta “Emmi”, ikki marta “Oltin globus” hamda “Pibodi” mukofotlari bilan taqdirlangan.

S.TURSUNOV.

Serialdagagi bemor bir necha yil avval son bo’g’imini metalli protez bilan almashtirgan bo’ladi.

Yurgen Shefer o’z bemorini kasallik tarixini o’rganadi. Hayotdagi bemor ham 2 yil avval son bo’g’imlariga protez o’rnatgani ma’lum bo’ladi.